

**XALQARO JINOYAT SUDINING TASHKIL TOPISHI VA
RIVOJLANISHINING XALQARO-HUQUQIY BOSQICHLARI.**

Oybo‘tayeva Laylo

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti “Xalqaro huquq” fakulteti magistranti.

khudanovaLAYLO@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqola Xalqaro jinoyat sudining tashkil topishi, uning tarixi va rivojlanish bosqichlarini tahlil qiladi. Muallif xalqaro jinoyat yurisdiksiyasi tarixi, ikkichi jahon urishining xalqaro jinoyati rivojlanishiga ta’siri hamda Rim statutining qabul qilinish jarayonini o‘rganib chiqadi. Shuningdakil Rim statutini tuzilishi tahlil qiladi.

Kalit so‘zlar

Xalqaro jinoyat sudi (ICC), Rim statuti, xalqaro jinoyatlar, jinoiy javobgarlik, yurisdiksiya, inson huquqlari, jahon urishi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, genotsid, PremCom, urush jinoyatlari.

Аннотация

В данной статье анализируются создание Международного уголовного суда, его история и этапы развития. Автор рассматривает историю международной уголовной юрисдикции, влияние двух мировых войн на развитие международного уголовного права, а также процесс принятия Римского статута. Кроме того, анализируется структура Римского статута.

Ключевые слова

Международный уголовный суд (ICC), Римский статут, международные преступления, уголовная ответственность, юрисдикция, права человека, мировая война, Организация Объединённых Наций, геноцид, PrepCom, военные преступления.

Abstract

This article analyzes the establishment of the International Criminal Court, its history, and stages of development. The author examines the history of international criminal jurisdiction, the impact of the two World Wars on the development of international criminal law, and the process of adopting the Rome Statute. In addition, the article analyzes the structure of the Rome Statute.

Keywords

International Criminal Court (ICC), Rome Statute, international crimes, criminal responsibility, jurisdiction, human rights, world wars, United Nations, genocide, PrepCom, war crimes.

Kirish. 1998-yil 17-iyul kuni Rim shahrida 160 davlat ishtirokida diplomatik konferensiya bo‘lib o‘tadi. Ushbu konferensiya natijasida Rim Statutini qabul qildi va shu tariqa insoniyat tarixidagi birinchi doimiy xalqaro jinoiy tribunalga asos solish uchun

25-Iyun, 2026-yil

birinchi qadam qo‘yiladi⁷. Talab qilingan 60 ta ratifikatsiya hujjati saqlash uchun topshirilganidan keyin 2002-yil 1-iyulda Rim Statuti kuchga kiradi. Statut Xalqaro Jinoyat Sudiga butun xalqaro hamjamiyatni tashvishga soluvchi eng og‘ir jinoyatlar ya’ni genotsid, insoniyatga qarshi jinoyatlar, urush jinoyatlari va agressiya jinoyatlari ustidan yurisdiksiya beradi⁸. O‘sha paytdagi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi Kofi Annan Xalqaro Jinoyat Sudini haqida shunday deydi: “Kelajak avlodlarga umid sovg‘asi” hamda “Umuminsoniy huquqlar va qonun ustuvorligi sari yurishdagi ulkan qadam”⁹.

Biroq Sud o‘z o‘zidan paydo bo‘lib qolmagan. Uning shakllanishi besh asrdan ortiq davom etgan urinishlarning natijasi edi.

Xalqaro jinoyat tarixiy asoslari. Xalqaro jinoyatning yurisdiksiyasi XV asrga borib taqaladi. 1474-yilda Breysax shahrida Muqaddas Rim imperiyasi va Shveytsariya konfederatsiyasining shaharlaridan tanlangan yigirma sakkiz sudyadan iborat favqulodda tribunal ser Peter fon Hagenbaxni sud qilish uchun yig‘ildi. U Burgundiya gersogi Charlz Jasur tomonidan Yuqori Elzasning balyisi (ma’muriy boshqaruvchisi) etib tayinlanib, Yuqori Reyn mintaqasidagi hududlar va huquqlarni boshqarish vazifasini olgan. Fon Hagenbax o‘z boshqaruvi davomida sodir etgan qotillik, zo‘rlash, soxta qasamyod va “Xudo va inson qonunlariga” qarshi boshqa jinoyatlari uchun ayblangan edi¹⁰. Tribunal Hagenbaxni aybdor deb topdi, ritsarlik unvonidan mahrum etdi va uni qatl etishni buyurdi. Sud jarayoni Burgundiya va Habsburg hukmronliklari o‘rtasida hech qanday rasmiy urush holati mavjud bo‘lmagan paytda o‘tkazilgan bo‘lsa-da, ish xalqaro huquqshunoslar tomonidan zamonaviy davrning birinchi xalqaro urush jinoyatlari sudi sifatida keng tan olinadi, chunki u ko‘p millatli xarakterga ega edi va oliy buyruqlar himoyasini rad etgan edi. Fon Hagenbax ishidan keyin esa jinoiy yurisdiksiya g‘oyasi qariyb to‘rt yuz yil davomida asosan tegilmay keldi. Birinchi jahon urushi (1914–1918) davridagi misli ko‘rilmagan miqyosdagi zo‘ravonlik xalqaro jinoyat uchun javobgarlik talabiga yangi ruh baxsh etdi. 1919-yilda Parij Tinchlik konferensiyasining tayyorgarlik bosqichida urush sababchilari javobgarligi to‘g‘risidagi komissiya tashkil etildi, uning quyi komissiyasi o‘ttiz ikkita aniq urush jinoyatlari ro‘yxatini tuzdi. Buyuk Britaniya, Fransiya, Amerika Qo‘shma Shtatlari va Italiya vakillari “Katta To‘rtlik” nomi bilan tanilgan edi. “Katta To‘rtlik” Birinchi jahon urushini yakunlagan Versal shartnomasining ishlab chiqilishiga olib kelgan muzokaralarda boshchilik qildi¹¹. Ko‘pincha zamonaviy davrning birinchi ad hoc xalqaro jinoiy sudini tashkil etishga urinish sifatida tasvirlanadigan Versal shartnomasining 227-moddasi Hohenzollernlik sobiq German imperatori Kaiser Vilgelm II ni “xalqaro axloq va shartnomalarning muqaddasligiga qarshi oliy huquqbuzarlik uchun” hamda birinchi jahon urushini boshlaganlikda ommaviy ravishda ayblab, uni Qo‘shma Shtatlar, Buyuk Britaniya,

⁷ International Criminal Court; Understanding the International Criminal Court;2020,p6 <https://www.icc-cpi.int/sites/default/files/Publications/understanding-the-icc>

⁸ Rim Statuti. 5 modda.

⁹ Lee, R. S. (Ed.). (1999). The International Criminal Court: The Making of the Rome Statute: Issues, Negotiations, Results. The Hague: Kluwer Law International.p26

¹⁰ Levie, H. S. (2000). The History and Status of the International Criminal Court. In M. N. Schmitt (Ed.), International Law Across the Spectrum of Conflict: Newport, RI: U.S. Naval War College.p1

¹¹ <https://history.state.gov/milestones/1914-1920/paris-peace>

Fransiya, Italiya va Yaponiya tomonidan tayinlangan besh sudyadan iborat maxsus tribunal oldida sud qilishni nazarda tutdi¹². Biroq bu urinish muvaffaqiyatsizlik bilan yakunlandi. Sababi Vilgelm urush oxirida o‘sha paytda betaraf (neutral) pozitsiyasida bo‘lgan Niderlandiyaga qochib ketadi va u toki 1941 yil 4 iyunda o‘limigacha Niderlandiyada joylashgan Huis Doorn qarargohida yashadi. Niderlandiya o‘sha paytda betaraf pozitsiyasida bo‘lgani uchun “Ittifoqchi” davlatlar bosimiga qaramasdan Vilgelmn ekstradisiya qilishdan bosh tortdi¹³. Shunigdek shartnomaning 228 dan 230 gacha bo‘lgan moddalari urush jinoyatlarida ayblanayotgan 900 shaxslarni¹⁴ “Ittifoqchilarning” (Buyuk Britaniya, Fransiya, AQSh, Italiya va boshqa g‘olib davlatlarning harbiy sudlari harbiy sudlari) tribunallariga topshirishni nazarda tutgan, biroq urushdan keyingi Germaniyadagi siyosiy beqarorlik tufayli hamda Germaniya “Ittifoqchilar”ga o‘z fuqarolarni topshiridan bosh tortgani sababli oxir-oqibat Leyptsigdagi Germaniya Oliy sudi ushbu sud jarayonlarini olib borishiga rozi bo‘ldi. 1921 yilning 23 may va 16 iyul oralig‘ida Leypstig shahrida joylashgan Germaniyaning eng oliy sudi “Reichsgericht” urush jinoyatlarida gumon qilingan o‘n yetti nafar nemisni o‘n ikki sud jarayonida sud qildi. Sud jarayonlarida Germaniya qonunchiligi qo‘llanilgan. Ushbu sud chiqargan qarorlardan hech qaysi tomon rozi bo‘lmagan. Chunki “Ittifoqchilar”ning fikricha jinoyatchilarga juda yengil jazo qo‘llanilgan. Haqiqatdan ham sud qilinganlarning 10 ta oqlangan qolgan yeti nafari esa 6 oydan 2 yilgacha qamoq jazolarini olishgan¹⁵. “Ittifoqchi” davlatlar ushbu qarorni haddan tashqari yengil va adolatsiz deb hisoblaydi. Germaniyaning o‘zida esa ushbu sud jarayoniga nisbatan bir necha sabablarga ko‘ra noroziliklar mavjud bo‘lgan¹⁶:

- Urushda qatnashgan barcha tomonlar urush jinoyatlarini sodir etgan bo‘lishiga qaramay, faqat nemislar sud qilinayotgan edi;
- Ayrim hollarda ayblanuvchilar shunchaki og‘ir va murakkab sharoitlarda o‘z xizmat vazifalarini bajarishga harakat qilgandek ko‘ringan;
- Bir nechta ayblovlar asossiz yoki shubhali tuyulgan;
- Fuqarolik qamoqxonasida qamoq jazosi o‘tash harbiy sha’n va qadr-qimmatga haqorat sifatida qabul qilingan.

Umuman olganda Germaniya aholisi ikkinchi jahon urishi uchun o‘zini aybdor deb bilmasdi hattoki “Ittifoqchilar” tomonidan Versal shartnomasi imzonlanganda Germaniya ko‘chalarida katta qarshiliklar (protestlar) vujudga keladi. Chunki Fransiya, Angliya va AQSh Germaniyaning yana bir urush boshlashini oldini olish maqsadiga unga faqatgina kichik armiya saqlashga ruxsat bergandi. Bundan tashqari Germaniyaning ko‘plab hududlari g‘olib davlatlarga o‘tib ketgandi. Misol uchun Fransiya Alsace-Lorraine hududini hamda Saar hududida joylashgan ko‘mir konlarini o‘ziga qo‘shib olgandi. Germaniya sharqida jiyilashgan hududlarsa Polsha tarkibiga o‘tdi bundan tashqari Germaniya Osiya va

¹² Levie, H. S. The History and Status of the International Criminal Court. In M. N. Schmitt (Ed.), International Law Across the Spectrum of Conflict: Newport, RI: U.S. Naval War College. 2000. p.248

¹³ <https://www.history.com/articles/wwi-kaizer-wilhelm-war-crimes-leipzig-trial>

¹⁴ <https://encyclopedia.1914-1918-online.net/article/leipzig-war-crimes-trials/>

¹⁵ https://military-history.fandom.com/wiki/Leipzig_War_Crimes_Trials

¹⁶ Yarnall, John (2011). Barbed Wire Disease: British & German Prisoners of War, 1914-19. Stroud: Spellmount. pp. 183-96

Afrikadagi koloniyalarini ham yo‘qotdi. Germaniya aholisi buni xo‘rlanish deb qabul qilgandi hamda reparatsiyalar to‘lash davlat bo‘ylab qashshoqlikka olib kelgandi¹⁷.

Ushbu Versal shartnomasining eng muhim yutuqlaridan biri bu unga Millatlar Ligasi Pakti kiritilganida edi. Millatlar Ligasi davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish va dunyoda tinchlik hamda xavfsizlikni ta‘minlash maqsadida tuzilgan xalqaro hukumatlararo tashkilot hisoblangan. Ushbu Pakt muqaddima va 26 ta moddadan iborat edi¹⁸. Shuningdek ushbu paktning 14-moddasiga asosan Millatlar Ligasi tomonidan dunyodagi birinchi doimiy xalqaro adolat sudiga asos solinadi hamda ushbu sud hozirgi BMT qoshidagi xalqaro adolat sudiga hamda xalqaro jinoyat sudiga poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu sudni tartibga soluvchi Statuti ham mavjud bo‘lib u 68 moddadan iborat edi. Lekin unda bir muammo bore edi, ushu Statut 34 moddasiga binoan sudga murojaat qilish hamda qatnashish huquqi faqatgina davlatlarga berilgan edi¹⁹. Bu esa o‘z navbatida jismoniy shaxslarni xalqaro sudga tomon sifatida qatnasha olmasligini anglatardi. Shunga qaramay, Paktda mavjud bo‘lgan moddiy taqiqlar keyinchalik Nyurnberg va Tokioda tinchlikka qarshi jinoyatlar ayblovi uchun huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Afsuski Millitlar Ligasi ish bermadi va ikkinchi jahon urushini oldini olib qola olmagani uchun 1946 yilda tarqatib yuborildi.

Ammo ikkinchi jahon urushi va u bilan bog‘liq vahshiyliklar, xususan, Yevropadagi yahudiylarining tizimli genotsidi va Yaponiya imperator armiyasi tomonidan Osiyoda sodir etilgan vahshiyliklar xalqaro miqyosda jinoiy javobgarlikka qaytarib bo‘lmaydigan talabni keltirib chiqardi. Ikkinchi jahon urushi tugagandan so‘ng 1945-yil 8-avgustda to‘rt asosiy Ittifoqchi davlat: Amerika Qo‘shma Shtatlari, Buyuk Britaniya, Fransiya va Sovet Nyunberg tribunal nizomi qabul qilindi.

Nyurnberg Statutining 6-moddasi shaxsiy jinoiy javobgarlik bo‘lishi kerak bo‘lgan uchta jinoyat toifasini belgilab berdi: tinchlikka qarshi jinoyatlar (tajovuzkor urushni rejalashtirish, tayyorlash, boshlash yoki olib borish), urush jinoyatlari (urush qonunlari va urf-odatlarining buzilishi), va insoniyatga qarshi jinoyatlar (qotillik, qirg‘in, qul qilish, deportatsiya va har qanday tinch aholiga qarshi sodir etilgan boshqa noinsoniy harakatlar)²⁰. Statutning 7 va 8-moddalari yana shuni nazarda tutgan ediki, ayblanuvchining rasmiy lavozimi va uning o‘z hukumati yoki yuqori turuvchi shaxsning buyrug‘iga binoan harakat qilgani uni jinoiy javobgarlikdan ozod qilmaydi. Bir paytning o‘zida Uzoq Sharq bo‘yicha Xalqaro Harbiy Tribunal 1946-yil 19-yanvarda general Duglas MakArtur tomonidan e‘lon qilingan farmoyish bilan tashkil etildi va Yaponiyaning yuqori martabali yigirma sakkizta harbiy va siyosiy rahbarlarini, jumladan, tajovuz, an’anaviy urush jinoyatlari va insoniyatga qarshi jinoyatlarni o‘z ichiga olgan ayblovlar bo‘yicha sud qildi. Har ikkala tribunalga nisbatan qo‘zg‘atilgan “g‘oliblar adolati”(urushdan keyin faqat mag‘lub bo‘lgan tomon sud qiladigan hamda g‘olib tomonning jinoyatlari e‘tibordan chetda qoldirilishi) tanqidlariga qaramay, ularning xalqaro jinoiy huquqqa moddiy va protsessual hissalarini o‘zgartiruvchi kuchga ega bo‘ldi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi 1946-yil 11-

¹⁷ <https://www.annefrank.org/en/timeline/4/germany-loses-the-war-protests-against-the-treaty-of-versailles/>

¹⁸ <https://www.ungeneva.org/ru/about/league-of-nations/covenant>

¹⁹ <https://www.refworld.org/legal/constinstr/lon/1920/57478>

²⁰ Nyunberg statuti, 6 modda <https://avalon.law.yale.edu/imt/imtconst.asp>

dekabrdagim Rezolyutsiyasida Nyurnberg printsiplarini tasdiqladi va 1950-yilda Xalqaro huquq komissiyasi (ILC) ularni rasmiy kodifikatsiya qildi. Birinchi marta Nyurnbergda xalqaro jinoyatlar uchun shaxsiy jinoiy javobgarlik, rasmiy lavozimning ahamiyatsizligi va himoya sifatida yuqori buyruqlarning cheklangan mavjudligi kabi tushunchalar kiritilida va keyinchalik ushbu tushunchalar o‘zgartirilgan shaklda Rim Statutining o‘ziga ham qo‘shildi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro jinoiy sudni tashkil etish bo‘yicha vakolatli vakillar Diplomatik konferensiyasi 1998-yil 15-iyundan 17-iyulgacha Rim shahridagi Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkilotining shtab-kvartirasida bo‘lib o‘tdi. Konferensiyada bir yuz oltmishta hukumat, shuningdek, o‘ttiz uchta xalqaro tashkilot va deyarli besh yuz nafar shaxsdan iborat ikki yuzdan ortiq nodavlat tashkilotlar Koalitsiya delegatsiyasi ishtirok etdi²¹. Konferensiyaga Jovanni Konso raislik qildi, Kanadalik Filip Kirsh esa moddiy muzokaralarni olib borgan Butun Qo‘mitaga raislik qildi²². Rimda olib borilgan muzokaralar bir qator chuqur bahsli masalalar bilan ustun edi. Bulardan eng muhimi Sud yurisdiksiyasi masalasi edi ya’ni jinoyat sodir etgan shaxsni qaysi davlat sudi jazoga tortish kerak.

Boshqa asosiy bahsli nuqtalar tajovuz jinoyatining ta’rifi, xalqaro xarakterga ega bo‘lmagan qurolli to‘qnashuvlarda sodir etilgan jinoyatlarni kiritish, izohlarni boshqaruvchi tartib hamda sud va milliy yurisdiksiyalar o‘rtasidagi to‘ldiruvchilik rolini o‘z ichiga oldi. Ushbu va boshqa masalalar bo‘yicha PrepCom jarayoni davomida shakllangan(BMT ning Xalqaro jinoiy sudni tashkil etish bo‘yicha tayyorgarlik qo‘mitasi).Uning asosiy vazifasi keyinchalik davlatlar tomonidan qabul qilinishi mumkin bo‘lgan matnni yaratish edi. PrepCom “xalqaro jinoiy sud to‘g‘risidagi konvensiyaning keng qabul qilinadigan yagona matnini tayyorlashi” kerak edi. PrepCom o‘z ishini International Law Commission tomonidan taqdim etilgan oltmish sakkiz moddadan iborat dastlabki matn asosida boshlagan²³. Keng qamrovli statut loyihasini ishlab chiqish uchun o‘tkazilgan o‘n to‘qqiz haftalik rasmiy yig‘ilishlardan so‘ng, PrepCom Rimga 116 moddadan iborat hamda kelishilmagan iboralarni o‘z ichiga olgan 1 700 ta qavsli bandlarga ega konvensiya loyihasini yubordi²⁴. Kanada, Germaniya, Niderlandiya, Janubiy Afrika, Argentina va Yevropa Ittifoqining ko‘pchilik a’zolarini o‘z ichiga olgan taxminan oltmish davlatdan iborat Yagona Maqsadli Guruh (Like-Minded Group) deb nomlangan koalitsiya asosiy jinoyatlar ustidan avtomatik yurisdiksiyaga ega kuchli va mustaqil Sud uchun izchil bosim o‘tkazdi. Aksincha, Qo‘shma Shtatlar sud jarayonlari Xavfsizlik Kengashi filtriga bo‘ysundiriladigan va Statutga a’zo bo‘lmagan davlatlar fuqarolari samarali ravishda Sudning yurisdiksiyasidan immunitetga ega bo‘ladigan tartibni qidirdi²⁵. Konferensiyaning

²¹ John Washburn;(1999) The Negotiation of the Rome Statute for the International Criminal Court and International Lawmaking in the 21st Century.

²² Kirsch, P., & Holmes, J. T. (1999). The Rome Conference on an International Criminal Court: The Negotiating Process. American Journal of International Law

²³ John Washburn;(1999) The Negotiation of the Rome Statute for the International Criminal Court and International Lawmaking in the 21st Century; p2

²⁴ Report of the Preparatory Committee on the Establishment of an International Criminal Court, U.N. Diplomatic Conference of Plenipotentiaries on the Establishment of an International Criminal Court

²⁵ Scheffer, D. J. (1999). The United States and the International Criminal Court. American Journal of International Law p13

so‘nggi kechasida, 1998-yil 17-iyulda, muzokaralar qulash arafasida turganida, Byuro eng nozik murosallardan birini aks ettiruvchi keng qamrovli “yakuniy paket” ni taqdim etdi²⁶. Sudning yurisdiksiyaviy ko‘lamini zaiflashtirishga qaratilgan AQShning so‘nggi daqiqadagi taklifi yozib olinmagan ovoz berishda 113 ga qarshi 17 ovoz bilan rad etildi. Keyin Statut yoqlab 120 ovoz, qarshi 7 ovoz (Qo‘shma Shtatlar, Isroil, Xitoy, Iroq, Liviya, Qatar va Yaman) va 21 ta betaraf ovoz bilan ovoz berish orqali qabul qilindi va bu kuzatuvchilarning ta‘rifiga ko‘ra konferensiya zalida misli ko‘rilmagan tik turishli olqishlarga sabab bo‘ldi²⁷. 17-iyul keyinchalik Davlatlar Ishtirokchilari Assambleyasi tomonidan Xalqaro jinoiy adolat xalqaro kuni sifatida belgilangan.

O‘n uchta qismga taqsimlangan 128 ta moddadan iborat Rim Statuti murakkab institutsional dizaynga ega doimiy xalqaro jinoiy sudni tashkil. 1-modda Sud “doimiy institut bo‘lishini” va u “xalqaro ahamiyatga ega eng og‘ir jinoyatlar uchun shaxslar ustidan yurisdiksiyani amalga oshirish vakolatiga ega bo‘lishini” va u “milliy jinoiy yurisdiksiyaga to‘ldiruvchi bo‘lishini” belgilab beradi. To‘ldiruvchilik tamoyili bunga binoan Sud yurisdiksiyani faqat birlamchi yurisdiksiyaga ega davlat haqiqatan ham tergov o‘tkaza va sud qila olmasa yoki xohlamasa amalga oshira oladi. Statutning markaziy kontseptual yangiliklaridan biri va davlat suvereniteti uchun muhim yengillik bo‘lib chiqdi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki Xalqaro jinoyat sudi va Rim statutining tashkil topishi uzoq jarayon bo‘lgan. Ularning tashkil topishi uchun insoniyat ikki nafar jahon urushini boshidan kechirishi kerak bo‘ldi. Xalqaro jinoyat sudining tashkil topishi va Rim statutining qabul qilinishi 2002 yil sodir bo‘lgan bo‘lsa ham ushbu yilgacha besh asr oldin davlatlar orasida xalqaro jinoyatlar uchun shax individual javobgarlik tushunchasi mavjud bo‘lgan. Rim statuting tashkil topishi ham bir necha bosqichlardan o‘tgan lekin xalqaro jinoyat sudida hali ham selektivlik va majburlash mexanizmlarining zaifligi shuni ko‘rsatadigi ushbu sud tizimini mukammallashuv jarayoni hali ham o‘z yakuniga yetmagan.

FOYDALANILGAN HUQUQIY MANBAALAR:

1. Rim statuti
2. Nyunberg statuti
3. Versal shartnomasi
4. Millatlar Ligasi Pakti
5. Xalqaro Adliya Doimiy Sudining Statuti(1920)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

6. Lee, R. S. (Ed.). (1999). The International Criminal Court: The Making of the Rome Statute: Issues, Negotiations, Results. The Hague: Kluwer Law International. p26

²⁶ Kirsch, P., & Holmes, J. T. (1999). The Rome Conference on an International Criminal Court: The Negotiating Process. American Journal of International Law

²⁷ <https://www.coalitionfortheicc.org/icc-history>

25-Iyun, 2026-yil

7. Levie, H. S. The History and Status of the International Criminal Court. In M. N. Schmitt (Ed.), International Law Across the Spectrum of Conflict: Newport, RI: U.S. Naval War College. 2000. p.248
8. Yarnall, John (2011). Barbed Wire Disease: British & German Prisoners of War, 1914-19. Stroud: Spellmount. pp. 183–96
9. John Washburn; (1999) The Negotiation of the Rome Statute for the International Criminal Court and International Lawmaking in the 21st Century.
10. Kirsch, P., & Holmes, J. T. (1999). The Rome Conference on an International Criminal Court: The Negotiating Process. American Journal of International Law

FOYDALANILGAN INTERNET MANBALAR:

11. <https://www.icc-cpi.int/sites/default/files/Publications/understanding-the-icc>
12. <https://history.state.gov/milestones/1914-1920/paris-peace>
13. <https://www.history.com/articles/wwi-kaiser-wilhelm-war-crimes-leipzig-trial>
14. <https://encyclopedia.1914-1918-online.net/article/leipzig-war-crimes-trials/>
15. https://military-history.fandom.com/wiki/Leipzig_War_Crimes_Trials
16. <https://www.coalitionfortheicc.org/icc-history>